

## XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI VA ULARNING O'RGANUVCHILAR UCHUN AHAMIYATI

**Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: [abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com](mailto:abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishda pedagoglar tomonidan keng qo'llaniluvchi metodlar va ularni o'rganuvchilarga samarali tadbiq qilish atroficha ko'rib chiqilgan bo'lib, ular milliy va xorijiy mutaxassislarning tajribalarini misol keltirish yordamida yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy tillarni o'zlashtirishda foydalanuvchi usullarning ustun va kamchilik jihatlarini ifodalab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorijiy tillar, yosh chegaralari, metodlar, to'g'ri usul, qiyosiy usul, aralash usul, tarjima metodi.

## ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно рассмотрены методы, широко применяемые педагогами при изучении иностранных языков, и их эффективное применение к обучающимся, которые освещаются на примере опыта отечественных и зарубежных специалистов. В статье также представлены преимущества и недостатки используемых методов в освоении иностранных языков.

**Ключевые слова:** Иностранные языки, возрастные ограничения, методы, прямой метод, сравнительный метод, смешанный метод, переводческий метод.

## EFFECTIVE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND THEIR IMPORTANCE FOR LEARNERS

### ABSTRACT

In this article, the methods which are widely used by pedagogues in learning foreign languages and their effective application to earners are carefully considered, and they are highlighted by giving examples of the experiences of national and foreign

experts. The article also describes the advantages and disadvantages of the methods used in learning foreign languages.

**Keywords:** Foreign languages, age limits, methods, straight method, comparative method, mixed method, translation method.

Zamon shiddat bilan rivojlangani sari uning talablari ham to‘xtovsiz o‘zgarib bormoqda. Dunyo mamlakatlari bir-biri bilan ijtimoiy, siyosiy va madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish orqali o‘zaro yaqinlashmoqdalar. Ular nafaqat mamlakatlarini rivojlantirish, balki shu davlatda istiqomat qilayotgan xalqlarning ham til, urf-odat va madaniyat tomondan birlashishi va bir-birlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishlari uchun turli shart-shaoitlarni yaratmoqdalar. Bu borada, ayniqsa, ularning tillari muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ikki yoki undan ortiq davlatlar o‘zaro aloqalarini rivojlantirish bilan birgalikda mamalakatda o‘zga yurtning tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni orttirish uchun ham harakat qilishmoqda. Yurtimiz misolida olib qaralsa, hozirgi kunda dunyoning katta qismida yashovchi insonlar uchun davlat tiliga aylanib ulgurgan ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish avj olib boryapti. O‘zbekistonning barcha bosqichdagi o‘quv dargohlarida xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilidan dars soatlari ko‘payib, yoshlarning ushbu tilga bo‘lgan qiziqishlari orttirilmoqda. Bundan tashqari, nafaqat ingliz tili, balki boshqa chet tillari bo‘yicha xalqaro darajada e’tirof etilgan sinov imtihonlarini topshirib, yuqori natijalarni qayd etgan yoshlarni rag‘batlantirish to‘xtovsiz ravishda amalaga oshirilmoqda. Chet tillarini o‘rganish orqali yurtimiz yoshlari dunyoning nufuzli universitetlarida yuqori foizli grantlar yutib, o‘z sohalarining eng kuchli mutaxassislaridan saboq olmoqdalar. Bu esa davlatimizni rivojlantirish maqsadida yangi g‘oya va texnologiyalarni yaratish uchun poydevor bo‘lib xizmat qilyapti.

Yuqorida ta’kidlanganidek, chet tillarini o‘rganish orqali inson o‘zi uchun imkoniyatlar eshigini ochadi hamda butun jahon tan oluvchi yetakchi mutaxassis bo‘lib yetisha oladi. Shu sababdan ham aksariyat ota-onalar farzandlari uchun ilk ilm dargohlarini tanlayotganlarida sport va mantiqni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar o‘tkazuvchi tashkilotlar bilan bir qatorda turli chet tillarini o‘rgatuvchi maskanlarni tanlamoqdalar. Ushbu talabalarni hisobga olgan holda davlat tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan tashqari xususiy ravishda faoliyat olib boruvchi bog‘chalar ham ko‘paytirilmoqda. Ushbu tashkilotlar uchun pedagoglarni tayyorlash uchun alohida yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, yosh kadrlar ish jarayonlarini samarali olib borish uchun barcha zaruriy bilimlarni olmoqdalar. Bog‘cha yoshidagi bolalar ta’lim dasturi qolgan yoshdagilarnikiga nisbatan murakkabroq bo‘lib, ular uchun umuman yangi, o‘z ona tillariga o‘xshamagan yangi chet tilini o‘qitish jarayoni biroz murakkabroq kechadi. Lekin malakali pedagoglar yosh bolalarga nafaqat ushbu tilni

o‘rgatadilar, balki ularni tezroq o‘zlashtirishlari uchun qiziqarli metodlar bilan dars mashg‘ulotlarini olib boradilar.

O‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniluvchi ushbu metodlar faqat yosh bolalar uchun emas, katta yoshdagi o‘rganuvchilar uchun ham katta foyda beradi. Boisi fikrni bir maqsadga jalg etuvchi mashqlar orqali o‘zlashtirish ancha oson kechib, xotiradan uzoq muddatga o‘chmaydi. Misol tariqasida har bir tilni o‘rganish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiluvchi lug‘at boyligini oshirish metodini oladigan bo‘lsak, bu butun dunyo uchun birdek samarali va qo‘llash oson bo‘lishi bilan xorijiy tillarni o‘rganish metodlari ichida alohida o‘rin kasb etadi. Lug‘at boyligini oshirish usuli insonlarning tasavvurlarida o‘zga tildagi bir so‘zning o‘z tillaridagi muqobil variantlarini topish va eslab qolish orqali yuzaga keltiriladi. Pedagoglar ushbu qobiliyatni rivojlantirish orqali o‘rganuvchilar kundalik hayotlarida deyarli har doim duch keluvchi yoxud ular o‘z ehtiyojlari uchun uzluksiz foydalanuvchi narsalar yordamida yangi so‘z va iboralarni yod olidirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Ilmiy tomondan esa istalgan chet tilini o‘rganish metodlari mutaxassislar tomonidan to‘rt qismga ajratilgan. Bular tarjima, to‘g‘ri, aralash va qiyosiy metodlar deb atalib, ular bir-biridan tilni o‘rgatishda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Ushbu to‘rt xil metodlar o‘z ichida ham yana qismlarga bo‘linib ketadi. Yuqorida aytib o‘tilgan tarjima metodi ham alohida grammatika-tarjima va matn-tarjima singari turlarni umumlashtiradi.

Grammatika-tarjima metodi orqali o‘quvchi chet tilini umumiyligi ta’lim jihatidan o‘rganadi. Ushbu metodda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini o‘sirish va rivojlantirish uchun turli xil grammatik mashqlar bajartirilib, ularga grammatik nazariyalar o‘rgatiladi. Bundan tashqari ushbu metodning maxsus funksiyalari bo‘lib, ular boshqa o‘qitish usullarida umuman qaytarilmaydi. Til o‘rgatishning yozma nutqqa asoslanganligi, o‘rganish predmeti qilib esa grammatika olinganligi hamda turli xildagi grammatik qoidalar yod olinishi kabi jihatlar aynan ushbu takrorlanmas funksiyalarni ifodalaydi.

Tarjima metodining yana bir bo‘g‘ini hisoblangan matn-tarjima usuli ham u bilan birgalikda keluvchi grammatik-tarjimadan keskin farq qiladi. Ushbu metodning asosiy maqsadi grammatika-tarjimadan farqli o‘laroq umumiyligi ta’limga emas, til o‘rganuvchining aqliy rivojlanishiga hissa qo‘sadi. Matn-tarjima metodining ham bir necha farqli funksiyalari mavjud. Ushbu metodda xorijiy tillar yozma shaklda o‘qitiladi hamda o‘rganuvchi til materialini tarjima va yod olish orqali o‘zlashtiradi.

Keyingi metodlar to‘g‘ri va qiyosiy metod hisoblanib, ular bir-birini inkor etuvchi 2 xil til o‘rganish usullarini ifoda etadi. Aniqroq aytilganda, to‘g‘ri metodda o‘rganuvchi o‘zga tildagi so‘z va iboralarni o‘z tilidagi muqobiliga solishtirmasdan o‘rganish kerakligini ilgari sursa, qiyosiy metod, aksincha, inson barcha ajnabiy

tushunchalarni o‘z ona tilidagi so‘zga solishtirishi va tafakkur orqali idrok etishi lozim, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi.

So‘nggi usul hisoblanmish aralash metoddasi esa oldindan to‘plangan barcha tajribalarni amaliyotda joriy etishdan iborat. Bu o‘qitish uslubini avval yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarga tuzatishlar kiritish va yangi samarali o‘rgatish texnikalarini yaratish orqali rivojlantirilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish lozimki, mutaxassislar tomonidan yaratilgan o‘qitish metodikalari chet tillarini o‘rganishda o‘quvchilar uchun samarali ko‘mak bermoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ahmedova S.R. Ta’lim va tarbiya jarayonlari uzviyligining samaradorligi //Science and education. – 2021. – T . 2. 369-373
2. Methods of Teaching English: 1975. – 312 c.
3. Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку
4. Ahmedova S.R Masofaviy ta’lim va uning xorijiy tillarni o‘qitishdagi o‘rni //Science and education. – 2021. – T . 2. 608-612

### **References**

1. Akhmedova S.R. The effectiveness of the integration of educational processes // Science and education. – 2021. – T . 2. 369-373
2. Methods of Teaching English: 1975. – 312 c.
3. Rogova G.V. Methods of teaching English
4. Akhmedova S.R. Distance education and its role in foreign language teaching // Science and education. – 2021. – T . 2. 608-612